

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 1 ISS: 12 (2024)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN  СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА 

INSURANCE



№	MUNDARIJA	
1.	ЎЗБЕКИСТОН СУҒУРТА БОЗОРИДА ВОСИТАЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ЭКОНОМЕТРИК ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА ПРОГНОЗЛАШ Матиязова Санобар Ражаббайовна	1
2.	СУҒУРТА БОЗОРИДА ИСТЕЪМОЛЧИЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ Жакбаров Сардор	4
3.	ТАКОФУЛ РИВОЖИНИНГ ТАРИХИЙ ЖИҲАТЛАРИ ВА ТАРҚАЛИШ ГЕОГРАФИЯСИ Абдуллаев Равшан Вахидович, Дадабаев Умиджон Абдусамат ўғли	7
4.	ЎЗБЕКИСТОНДА СУҒУРТА МАҲСУЛУТИНИ СОТИШ КАНАЛЛАРИНИНГ БУГУНГИ ХОЛАТИ Абдимўминова Саодат Тахиржонова	10
5.	ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ СУҒУРТАЛАШДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТАЛАБИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ Нуруллаев Абдулазиз Сирожиддинович	13
6.	O'ZBEKISTONDA SPORT SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI M.N.Mamatov	16
7.	SUVEREN KREDIT REYTINGNING MAMLUKAT MOLIYASIGA TA'SIRI Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li	19
8.	VENCHUR FONDLARINI TASHKIL ETISH: JARAYON VA STRATEGIYALAR Talapova Nargiza Baxriddinova	21
9.	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ БЮДЖЕТ СИЁСАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ Имомов Хамдилла Хамдамович	24
10.	MILLIY IQTISODIYOTDA MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANISHDA HUDUDLAR IQTISODIY VA INVESTITSION SALOHİYATINING NAZARIY ASOSLARI Yusupov Ruslan	27
11.	LOGISTIKA VA TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASH UCHUN MOLIYAVIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI Maxmudov Samariddin Baxriddinovich	31
12.	MDH MINTAQASIDA TRANSPORT SOHASIDAGI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EOII TRANSPORT INTEGRATSIYASINING TASHQI OMILLARI VA XAVFLARI Xo'jayev Fazliddin Elmurodovich	35
13.	COMBATTING THE SHADOW ECONOMY AS AN IMPORTANT DIRECTION OF ECONOMIC POLICY FOR AN INCLUSIVE DEMOCRATIC SOCIETY (EXPERIENCE OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES AS AN EXPAMPLE) Norbaev Tura, Abduraufov Jaloliddin	37
14.	EVROOSIYO IQTISODIY HAMJAMIYATI BILAN IQTISODIY HAMKORLIK MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TAMOIYILLARI Hamdamova Nilufar Hamdullo qizi	42



EVROOSIYO IQTISODIY HAMJAMIYATI BILAN IQTISODIY HAMKORLIK MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TAMOIYILLARI

Hamdamova Nilufar Hamdullo qizi

«ISFT» Instituti, «Fundamental iqtisodiy fanlar» kafedrası assistent- uqituvchisi

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 12 DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss12/233	Ushbu maqolada Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyati bilan iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini tashkil etish tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlari. Shu bilan birga iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini tashkil etish tamoyillarining bajarilishini ta'minlashda davlat oldida turgan maqsad va vazifalarni to'liq amalga oshirish usullari, chora-tadbirlarining holati va asosiy yo'nalishlari borasidagi masalalar keltirilgan.
KEYWORDS	Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, xalqaro, iqtisodiy, tashkilot, kuzatuvchi, bojxona, yagona bojxona ittifoqini, siyosat, defitsit, profitsit, byudjet daromadlari, byudjet xarajatlari; kredit, davlat krediti, halqaro munosabatlar, strategiya, integratsiya.

Kirish (Introduction/Введение)

Ma'lumki, Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyati 2001 yildan 2014 yilgacha davlatlararo (xalqaro) iqtisodiy tashkilot bo'lib u 2000 yil 10-oktyabrda ta'sis etilgan Aslida mazkur tashkilot 1995-yilda tashkil etilgan Bojxona Ittifoqining huquqiy vorisi sifatida qarilib kelingan. 2002 yil may oyidan Ukraina, Moldova, 2003 yildan Armaniston kuzatuvchi maqomiga ega bo'lgan. 2005 yil 6-7 oktabrda Sankt-Peterburgda Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti (MOHT)ga a'zo davlatlari kengashi bilan davlatlararo iqtisodiy integratsiyani yanada rivojlantirish maqsadlarida MOHT Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati bilan qo'shilgani haqida qaror qabul qilindi.

Hozirgi globallashuv sharoiti jahon mamlakatlari o'rtasida yuz berayotgan savdo-iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy tendensiyalari – xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalarini chuqur tadqiq etish lozimligini taqozo etmoqda. Bu o'rinda milliy iqtisodiyotlar oldida jahon hamjamiyatiga samarali integratsiyalashuvni chuqurlashtirish orqali tashqi iqtisodiy siyosatni doimiy takomillashtirib borish vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили (Обзор литературы/Literature review).

Maqolamizning mavzui bo'yicha adabiyotlar sharhida nazariy, amaliy hamda empirik adabiyotlarni tahlil qilish asosida mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari, fikrlari va xulosalarini ko'rib chiqdik.

(Iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Odil Olimjonov)

Ma'lumki 1992 — 2016 yillar mobaynida beshta davlatning iqtisodiy aloqalari susaydi, o'rtada sun'iy to'siqlar paydo bo'ldi. Bu davlatlarning hammasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2016 — 2019 yillarda YeOI davlatlari bilan hamkorlikning kuchayishi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, hududiy klasterlar, sanoat va savdo zonalarini tashkil etishda mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatini yanada kengaytiradi, tuman hamda shaharlarni industrial rivojlantirish maqsadida hududlarga chet el investitsiyalarini jalb qilish imkoniyatini oshiradi.

(Rossiyalik iqtisodchi N.Kapchuk).

O'zbekiston ittifoqqa a'zo mamlakatlar ichida mehnat resurslari soni bo'yicha Rossiyadan keyin 2-o'rinni egallaydi. Bu esa O'zbekistonning mehnat resurslariga boyligini, mehnat salohiyati yuqoriligini ko'rsatadi. Masalaga shu jihatdan yondashilsa, ittifoqqa a'zo bo'lish mehnat munosabatlari masalasida ko'plab ijobiy natijalarni beradi.

Babushkin, Alexey. "Uzbek Official Pours Soldier on Customs Union Membership". Mavzusida keltirilishicha, ayni ittifoq doirasida tovarlarning boj to'lovlarisiz olib o'tilishi, davlatlarning ichki bozorlariga mahalliy tovarlarning hech qanday to'siqlarsiz kirib borishi, bojxona idoralari faoliyatini tartibga solishning umumiy va mukammal tizimini yaratish, kapital harakati erkinligini ta'minlash imkoniyatlarini yaxshilaydi. RIA Novosti (13-noyabr 2013-yil). 1-sentabr.

Tadqiqot metodologiyasi (Methods/Методы).

Tadqiqot dizayni, ma'lumotlarni to'plash jarayoni, tahlil uchun qo'llaniladigan usullar, tadqiqotni o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlar, tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi, tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar kichik bo'limlarini o'z ichiga olgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results/Анализ и результаты).

Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo mamlakatlar Davlatlararo kengashining Sankt-Peterburg sammitida O'zbekiston mazkur tashkilotga rasman a'zo bo'ldi (2006 yil 25 yanvar). O'zbekiston tashkilotdan 2008 yilda chiqqan.

Amalda hamjamiyatning asosiy maqsadlariquyidagilar hisoblanadi:

- davlatlararo integratsiyaning eng yuqori darajasini ta'minlash holda o'zaro savdo-sotiqda bosqichma-bosqich tarif va notarif to'siqlarni bekor qilish yo'li bilan erkin savdo zonalarini;
- transport xizmatlari umumiy bozorini va yagona transport sistemasini;
- umumiy energetika bozorini;
- yagona bojxona ittifoqini;
- ishlab chiqarish omillarining erkin harakati ta'minlanadigan erkin bozorni va uyg'unlashgan iqtisodiy siyosat amal qiladigan iqtisodiy va valyuta ittifoqini bargyu etish va boshqalar.

Hamjamiyat doirasida imzolangan bitim va shartnomalar savdo-iqtisodiy, moliya, bojxona, tariflar va ijtimoiy sohalaridagi hamkorlik masalalarini tartibga sodadi. Hamjamiyatning oliy organi — a'zo mamlakatlar davlat boshliqlari va hukumat boshlikdari kiradigan davlatlararo kengash hisoblanadi (bir yilda kamila 3 marta — bir marta prezidentlar darajasida, 2 marta bosh vazirlar darajasida majlislar o'tkazadi).

Hamjamiyatning ijroiya organi — Integratsiya qo'mitasi uning tarkibiga hukumat boshliqlarining iqtisodiyot masalalari bo'yicha

o'rinbosarlari kiradi. Integratsiya qo'mitasi majlislari oralig'idagi davrda Hamjamiyatning joriy ishlarini Hamjamiyat huzuridagi doimiy vakillar komissiyasi vakillarni davlat boshliqlari tayinlaydi va boshqaradi. Integratsiya qo'mitasi qoshida doimiy ishlaydigan va 9 departamentdan iborat Sekretariat bor. Uni Davlatlararo kengash qarori bilan 3 yil muddatga tayinlanadigan Bosh kotib boshqaradi. Bundan tashqari Hamjamiyat huzurida birlamchi organlar tarzida 13 tarmoq kengashlari va 4 komissiya faoliyat ko'rsatadi.

A'zo mamlakatlarning parlamentlari vakillaridan iborat Hamjamiyatning Parlamentlararo assambleyasi doirasida davlatlarning qonun chiqaruvchi hokimiyatlari o'rtasidagi hamkorlik amalga oshiriladi (gomonlarning milliy qonunchiligini o'zaro uyg'unlashtirish va uni hamjamiyat doirasida tuzilgan shartnomalarga muvofiqlashtirish masalalarini ko'rib chiqadi).

Hamjamiyat sudi (har bir davlatdan 2 tadan vakil) hamjamiyat doirasida amal qiladigan shartnomalar va organlar qarorlarini a'zo davlatlar tomonidan bir xilda qo'llashni ta'minlaydi. Integratsiya qo'mitasi sekretariati Moskva va Olmaota shahrida, Parlamentlararo assambleya Sankt-Peterburg shahrida, hamjamiyat sudi Minskda joylashgan. Hamjamiyat 2003-yillan BMT Bosh asambleyasida kuzatuvchi maqomiga ega. Evropa Ittifoqi, Jahon savdo tashkiloti, Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan.

Yevrosiyo, yer sharidagi eng katta materik bo'lib, tarkibi Evropa va Osiyo qit'alaridan iborat. Yer maydoni 55 million km², shundan 2,75 million km²i orollar hisoblanadi. Materikning uzunligi g'arbdan sharqqa 16 ming km, eni shimoldan janubga 8 ming km. Yevrosiyo yonidagi materikdagi eng chekka nuqtalari shimolda Chelyuskin burni, janubda Piay burni, g'arbda Roka burni, sharqda Dejnev burni. Yevrosiyo yonidagi yer sharidagi quruqlikning 36,6%i to'g'ri keladi, materikda Yerdagi jami aholining qariyb 74%i yashaydi. Aholisi 5,2 milliard kishini tashkil etadi. Yevrosiyo yonidagi janubi-sharqidagi bir qancha orollar janubiy yarimsharda joylashgan. Yevrosiyo yonidagi g'arbdan Atlantika okeani, shimoldan Shimoliy Muz okeani, janubdan Hind okeani, sharqdan Tinch okeanlari va ularning chekka dengizlari o'rab olgan. Yevrosiyo eng qadimgi madaniyat maydonidir. Yevrosiyo yonidagi iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida Yevrosiyo materigining turli qismlarini bog'lovchi „Buyuk Ipak yo'li“ning ahamiyati katta bo'lgan. Quruqlikning yaxlitligi, ko'pgina iqlimiy jarayonlarning umumiyliigi, organik dunyo taraqqiyotining va boshqa tabiiy tarixiy hodisalarning o'xshashligi Yevropa bilan Osiyoni yagona nom Yevrosiyo deb atashga imkon beradi. Yevrosiyo tushunchasi geologiya va geografika fanlariga 1883-yilda E. Zyuss tomonidan kiritildi.

Yevrosiyo yer yuzasidagi eng katta eng baland materik. Shimoliy yarimsharning sovuqlik qutbi mavjud. Yevrosiyo hududida sakkiz minglik 14 ta cho'qqining barchasi joylashgan. Qor chizig'i eng balanddan o'tgan joy balandlik qutbi (6400 m, Markaziy Tibet) shu yerda. Eng chuqur va eng katta ko'li bor, eng uzun lianalar (300) ham shu yerda o'sadi.

Yevrosiyo materigi Shimoliy yarimsharda to'liq joylashgan (Malayya arxipelagining ayrim orollari ekvatoridan janubda). Yevropa atamasi qadimgi finikiyaliklarning (assiriya) Yerep — g'arb va Osiyo atamasi Osu esa sharq so'zlaridan kelib chiqqan. Yevrosiyo materigi sharqda Bering bo'g'izi orqali Shimoliy Amerikadan g'arbda Gibraltar bo'g'izi uni Afrikadan ajratib turadi. Yevrosiyo yonidagi Atlantika va Tinch okean qirg'oqlari kuchli parchalangan. Materik atrofida minglab orol va ko'plab yarimorollar joylashgan. Geologik jihatdan Yevrosiyo qadimgi mustahkam platformalardan va ularni tutashtiruvchi turli yoshdagi burmalı mintaqalardan tashkil topgan.

O'zbekiston Iqtisodiy ittifoqqa qo'shilishda ikkilanmoqda, O'zbekiston amaldorlari integratsiya istiqboliga qarshi da'volar bildirmoqdalar [1]. Mamlakat bugungi kunga qadar iqtisodiy va siyosiy integratsiyani amalga oshirmaslikni afzal ko'rmoqda. Rossiya amaldorlari ushbu mamlakat bilan integratsiyalashuv sust bo'lishini ta'kidladilar va tahlilchilar Rossianing ta'siri hamda Qirg'iziston va Tojikistonda savdo-sotiqning kuchayishi bilan O'zbekistonning kelajakda qo'shilishi mumkinligini aytmog'dalar.

Rossiya integratsiyalashuv jarayonini davlatning \$865 million miqdoridagi qarzini o'chirib yuborishini e'lon qilganida boshlagan.

References:

1. <http://www.themoscowtimes.com/business/article/top-uzbek-officials-make-opposing-claims-on-customs-union/489561.html>.

O'zbekiston MDHning erkin savdo hududiga 2014-yilda qo'shilgan bo'lib, mamlakat YOIIga a'zo davlatlar bilan erkin savdo qiladi [2]).

Ayrim manbalarga ko'ra, O'zbekiston YOIIga to'laonli a'zo bo'lib kirmoqchi emasligi keltirilgan. Chunki, O'zbekistonning amaliy betarafligi mamlakat qonunchiligida mustahkamlanib qo'yilgan.

Xulosa (Conclusion/Заключение).

O'zbekiston tashkilotga a'zo davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarda ijobiy sur'atni saqlab qolish va ularni barqaror rivojlantirish bo'yicha o'zaro kelishilgan chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi tarafdoridir. Shu munosabat bilan qo'shma qarorlar qabul qilishni taqozo etayotgan eng dolzarb vazifalarni keltirib o'tmoqchiman.

Birinchi. O'zaro savdodagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etishni davom ettirish muhim, deb hisoblaymiz.

Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari bilan tovar ayirboshlashni ko'paytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasidagi yondashuv va mexanizmlarni birgalikda ishlab chiqish.

Texnik tartibga solish normalari, sanitariya, fitosanitariya va veterinariya talablarini uyg'unlashtirish ishlarini davom ettirish. Bu borada Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan birgalikda alohida "Yo'l xaritasi"ni kelishish jarayonini yakunlash.

Ikkinchi. Avvalgi sammitda sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish muhim. Bugun ushbu yo'nalishdagi ishlarimiz ishtirokchi davlatlar bilan ko'proq ikki tomonlama asosda ishlarni olib borish zarur.

Bu borada Rossiya, Qozog'iston, Belarus va Qirg'iziston bilan sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash bo'yicha "yo'l xaritasi"larini qabul qilishni izchil amalga oshirish lozim. Birlashma bilan tegishli hamkorlikni tizimli asosda tashkil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Jumladan, Yevrosiyo iqtisodiy kengashining Industriallashtirish onlayn xaritasini yaratish.

Uchinchi. Yangi transport yo'laklarini barpo etish loyihalarini ilgari surish mamlakatlarimiz tranzit salohiyatini oshirish borasidagi birgalikdagi ishlarga qo'shimcha sur'at bag'ishlash.

O'zbekiston imzolanayotgan bitimga muvofiq amalga oshiriladigan yuk tashishlarni kuzatish uchun navigatsiya tamg'alarini joriy etish bo'yicha dasturni tuzib chiqish.

Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqining Logistika zanjirlarini rivojlantirishning raqamli ekotizimini yaratish to'g'risidagi yangi tashabbuslarni yaratish.

To'rtinchi. Global iqlim kun tartibini hisobga olib, a'zo va kuzatuvchi davlatlarning "yashil" energetika loyihalarini amalga oshirish borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtirish muhimdir.

Shu munosabat bilan, yuqori darajadagi ishchi guruh tashkil etish hamda uning doirasida "yashil" taraqqiyot sohasidagi qo'shma Chora-tadbirlar rejasini tasdiqlashni taklif etamiz.

Beshinchi. Raqamli iqtisodiyotga o'tish, innovatsiyalar va ilg'or IT-yechimlarni keng joriy qilish mamlakatlarimiz raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu borada bilim, tajriba va ilg'or texnologiyalar almashish, mamlakatlarimiz IT-parklari va markazlari o'rtasida tizimli hamkorlikni rivojlantirish, sohada ishbilarmonlar sherikligini kengaytirish maqsadida navbatdagi Yevrosiyo raqamli forumini O'zbekistonda o'tkazishni taklif etamiz.

Oltinchi. Yevrosiyo makonidagi muhim ishbilarmonlik tashabbuslari va dasturlarini amalga oshirishga kuzatuvchi davlatlarni yanada faol jalb etish yuzasidan o'zaro kelishilgan takliflar tayyorlash, ilmiy-texnik va gumanitar almashinuvni rag'batlantirish maqsadida Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi Taraqqiyot markazi imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Buning uchun markaz negizida mamlakatlarimiz taraqqiyot institutlarining faol ishtirokida o'zaro manfaatli hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha turkum tadbirlar o'tkazishni taklif etamiz.

Yettinchi. Iqtisodiy integratsiya maqsadlaridan kelib chiqib, kuzatuvchi mamlakatlarning Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasi Kengashi va organlari ishida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish kerak. Bu hamkorlik samaradorligini oshirish va qo'shma qarorlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

2. <http://itar-tass.com/en/economy/766223>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022. "Halq so'zi" gazetasi. 21.12.2022 -1 b.
4. Бабушкин, Алексей. Uzbek Official Pours Soldier on Sustoms Union Membership". РИА Новости (13-ноябр 2013-йил). 1-сентябр
5. Malikov T.S., Olimjonov O. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-969 b.
6. www.lex.uz– O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2023 y.
7. Nuriddinova V.Sh., Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2014. -344 b...